

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| F.A.Yuldashev Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlarni tadqiq etishning muhim jihatlari | 108 |
| M.M.Teshaboyev Jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik | 115 |

SIYOSAT

| | |
|--|-----|
| H.M.Rasulov Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida | 120 |
| K.X.Avazov Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati..... | 124 |
| B.M.Jo'raquziev Yangi O'zbekistonda "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining qaror topishi xususida | 129 |
| D.A.Mamajonova Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. ma'muriy, jinoyat va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish..... | 133 |
| I.A.Raximov "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining-milliy demokratik institut sifatidagi o'rni" | 138 |

TARIH

| | |
|--|-----|
| E.G.Radjabov Badiiy hamda san'at asarlarida o'zbek tog'-otliq diviziyasi qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov talqini | 142 |
| B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov Ilk Temir davrida ko'mish marosimiga oid | 148 |
| X.S.Jumanazarov Turkiston o'lkasida tibbiy muassasalar faoliyati tarixi..... | 154 |
| S.R.Tolibova O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo'nalishlari (Asean davlatlari misolida) | 159 |
| X.X.Azimov Qadimgi va ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo va Xitoy savdo aloqalari (Xitoy manbalari asosida) | 167 |
| K.S.Karimov Turkistonda mustamlaka huquqiy taksanomiyasi ta'sirida xalq sudyalari lavozimiga tayinlash tartiblari..... | 171 |
| N.Xudoyberdiyeva Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishi | 176 |
| F.U.Temirov Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi va Sadridin Ayniyning publisistik faoliyati | 179 |
| M.H.Isamiddinov O'zbekistonning antik davr moddiy madaniyatining o'ziga xos tomonlari..... | 183 |

ADABIYOTSHUNOSLIK

| | |
|---|-----|
| A.G.Sabirdinov Omon Muxtor romanlariga chizgilar | 188 |
| M.H.Mamatov, P.M.Ahmadchonov Sayfiddin Muhammad Farg'oniy ijodida tasavvufiy tamoyillar | 191 |
| P.M.Axmadjonov Sayf Farg'oniyning tarjimai holi va hayot yo'liga doir | 195 |
| G.H.Axmedova Ingliz adabiyotida jorj eliotning ijodi va tanqidiy realizm | 200 |
| G.V.Abdullayeva Topishmoq she'rlar va ularning badiiy-estetik funksiyasi | 204 |

**YANGI O‘ZBEKISTONDA “INSON – JAMIYAT – DAVLAT” TAMOYILINING QAROR
TOPISHI XUSUSIDA**

**ОБ ОПРЕДЕЛЕНИИ ПРИНЦИПА «ЧЕЛОВЕК – ОБЩЕСТВО – ГОСУДАРСТВО» В
НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**ON THE DETERMINATION OF THE PRINCIPLE OF "MAN - SOCIETY - STATE" IN THE
NEW UZBEKISTAN**

¹Jo‘raquziev Baxriddin Mirxojiddin o‘g‘li

¹Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonni ijtimoiy davlat deb e‘lon qilinishi, bu borada har bir fuqaroga munosib turmush kechirish uchun shart-sharoit yaratilayotganligi, mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlanayotgani, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta‘lim va tibbiyot kafolatlanayotgani to‘g‘risidagi ayrim fikr-mulohazalar keltirilgan.

Аннотация

В данной статье приводятся некоторые соображения по поводу провозглашения нового Узбекистана социальным государством, создания условий для достойной жизни каждому гражданину, распределения имеющихся ресурсов на основе принципов социальной справедливости, недопущения развития сильной стратификации в обществе, обеспечения качественного образования и медицины даже для самых уязвимых слоев населения.

Abstract

This article provides some thoughts on the proclamation of the new Uzbekistan as a social State, the creation of conditions for a decent life for every citizen, the distribution of available resources on the basis of the principles of social justice, the prevention of the development of strong stratification in society, and the provision of quality education and medicine even for the most vulnerable segments of the population.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy davlat, davlat funksiyasi, ijtimoiy himoya, kambag‘allikni qisqartirish, ta‘lim va tibbiyot sohasi, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy majburiyat.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, социальное государство, государственная функция, социальная защита, сокращение бедности, образование и медицина, здравоохранение, социальная ответственность.

Key words: New Uzbekistan, social state, state function, social protection, poverty reduction, education and medical field, health care, social responsibility.

KIRISH

Inson aziz, uning hayoti, huquqlari, istaklari muqaddas. Zotan, har kim o‘zi tug‘ilib o‘sgan diyorda baxtli kun kechirishga haqli. Bu maqsadlar ustuvorligiga qaratilayotgan e‘tibor sizubiz birgalikda bunyod qilayotgan – Yangi O‘zbekistonda bosh tamoyillardan sanalayotgani aslan, eng buyuk evrilish.

O‘zbekistonda “davlat – jamiyat – inson” tamoyilini yangi “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘zgartirib, konstitutsiyaviy qonunchilik va konstitutsiyaviy amaliyotda mustahkamlash, eng avvalo inson manfaatini har narsadan ustun qo‘yish maqsad qilindi.

Prezident Sh.Mirziyoyev 2021-yil 7-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag‘ishlangan nutqida “Hozirgi kunda O‘zbekiston ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli “Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat”, degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqti-soati yetdi” deb ta‘kidlagandi[4].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasidagi “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” jumlasini quyidagicha o‘zgartirildi: O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat[1].

O‘zbekiston o‘zini ijtimoiy davlat deb e‘lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta‘lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo‘llovga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda,

eng kambag'al oilaning bolalarida ham sog'-salomat o'sib-ulg'ayib, yaxshi ta'lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ijtimoiy davlat, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya yo'nalishida o'tkazilayotgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati avvalambor, O'zbekiston Qonunlari va meyoriy hujjatlarida, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov hamda prezident Sh.M.Mirziyoyevning asarlari, nutqlari hamda ma'ruzalarida, shuningdek, respublikamizning taniqli olimlari A.Azizxonov, S.Otamuratov, M.Rustamboyev, H.Boboyev, Z.Islomov, Q.Nazarov, I.Ergashev, A.Qodirov, M.Sharifxo'jayev, E.Yusupovlarning O'zbekistonda ijtimoiy jamiyatni barpo etishning turli masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Davlat rahbarlari va respublika olimlari o'z asarlarida O'zbekistondagi ijtimoiy siyosatning barcha jabhalarini qamrab oluvchi islohotlar, konsepsiyalar, yo'nalishlar, g'oyalar hamda fikr-mulohazalarni xalq farovonligi tamoyillariga tayanib amalga oshirish masalalari haqida fikr yuritganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ijtimoiy davlat – bu har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir.

Ijtimoiy davlat funksiyalari – bu ijtimoiy himoyalangan yoki ehtiyojmand qatlamni qo'llab-quvvatlash; ishsizlikka qarshi kurashish; tadbirkorlarga yordam; aholining bandligini va daromadlarini doimiy o'sishini ta'minlash; ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va ma'naviy-madaniy rivojlanishning qulayligini ta'minlash; jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali munosib turmush sharoitini yaratish.

Ijtimoiy davlat belgilari: – bu sifatli ta'lim, malakali va maqbul tibbiy xizmat; ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot; fuqarolik jamiyatini rivojlantirish; ijtimoiy davlat dasturlarini ishlab chiqishi va amalga oshirish; davlatning har kimga munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta'minot va shaxsning o'zini o'zi anglashi uchun teng boshlang'ich sharoitlarini ta'minlash maqsadlarini tasdiqlash; fuqarolar oldidagi ijtimoiy mas'uliyat; ijtimoiy sohaga to'lovlarning yuqori miqdori; ijtimoiy hayotni yaxshi rivojlangan tartibga solish tizimi; byudjetdan ijtimoiy to'lovlarning mavjudligi; ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot va bandlik davlat tizimlarining mavjudligi; jamiyatning barcha muhtoj a'zolarini istisnosiz ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning mavjudligi; fuqarolarning farovonlik darajasi uchun davlat tomonidan javobgarlikni qabul qilish[8].

Qayd etish lozimki, ijtimoiy davlat – sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, muhtojlarni uy-joy bilan ta'minlash, bandligini ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat modelidir.

Ahamiyatlisi, mamlakatda oxirgi besh-olti yilda ijtimoiy davlatning asosiy talablari amalga oshirildi, jumladan:

Birinchi, 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi va 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida, aynan ijtimoiy sohani rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish masalalari ustuvor vazifalar etib belgilandi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo'nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan. 2022-yilda strategiyani amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarga 55 trln so'm va 11,7 mlrd dollar ajratildi[2].

Ikkinchi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tashkil etildi, "Monomarkaz"lar faoliyati yo'lga qo'yildi, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tashkil etildi, ishlayotgan pensionerga yuz foiz pensiya to'lashga o'tildi, 2022-yilni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deya nomlanildi, Aholini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi tasdiqlandi va mamlakatda kambag'allik muammosi tan olindi, har bir aholi punktlarida (mahallalarda) kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadini oshirish uchun mas'ul bo'lgan hokim yordamchilari lavozimi joriy etildi. Eng muhimi, aholiga g'amxo'rlik ko'rsatish bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yildi.

Uchinchi, ijtimoiy davlatga mos bo'lgan ta'lim va tibbiyot sohalariga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz

SIYOSAT

uchun ilg'or bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak" [6:24].

"Ta'lim uchun investitsiya – buyuk kelajakka sarmoya" shiori ostida uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha misli ko'rilmagan islohotlar amalga oshirildi, buning natijasida maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 27,7 foizdan 67 foizga, maktablardagi malakali oliy ma'lumotli o'qituvchilar ulushi 81,8 foizdan 87,8 foizga, 11 yillik majburiy maktab ta'limi qayta tiklandi, maktab o'qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga yetkazildi.

Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish bo'yicha islohotlarimizni ham qatiyat bilan davom ettirmoqdamiz. Sog'liqni saqlash sohasining moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. Yurtimizda ko'plab yangi shifoxonalar, tibbiyot markazlari, oilaviy va xususiy klinikalar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda[5:349].

Sog'liqni saqlash sohasida budjetdan ajratilgan mablag'lar 7,3 trln. so'mdan 24,7 trln. so'mga, shifokorlarning o'rtacha oylik maoshi 1131,2 ming so'mdan 3282,7 ming so'mga, hamshiralalar maoshi 692,1 ming so'mdan 2008,6 ming so'mga, dori vositalari va tibbiy buyumlar uchun budjetdan ajratilgan mablag'lar 0,4 trln.so'mdan 1,8 trln.so'mga, tibbiyot sohasidagi OTMLar soni 7 tadan 9 taga, xususiy tibbiyot tashkilotlari soni 4 000 tadan 7 049 taga yetkazildi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishning asosi yaratildi[9].

2022-yil 25-may kuni davlat rahbarining "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi[3].

Qaror asosida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini, jumladan, kam ta'minlangan bolali oilalarni aniq yo'naltirilgan tarzda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy farovonlik darajasini oshirish, keksa avlod vakillari manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlash, shuningdek, insonparvarlik, mehr-oqibat, saxovat tadbirlarini izchil davom ettirish maqsadida, davlat budjeti mablag'lari hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga bir martalik moddiy yordam ko'rsatildi.

Tan olish lozim, davlat uchun muayyan guruhlarini bir martalik moliyaviy qo'llab-quvvatlash bir qarashda odatiy va murakkab bo'lmagan jarayon bo'lib ko'rinadi. Biroq, bu o'rinda fikrni kalta qaytarish yaramaydi, nazarimizda. Zotan, ijtimoiy islohotlar chegarasi faqatgina shu holat bilan yakunlanmaydi. YA'ni, o'sha kuni e'lon qilingan qaror so'nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan inson manfaatlariga qaratilgan islohotlar silsilasida bir bo'g'in xolos. Uni eslashimizdan maqsad esa, bunday ko'maklar odatda aholi xotirasida uzoq saqlanadi va u orqali boshqa misollarga o'tish imkoni oson. Aytaylik, "Ayollar daftari", "Temir daftar", "Yoshlar daftari" kabi ijtimoiy qo'llov vositalariga aylangan islohotlar.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalariga kirgan minglab xotin-qizlarga ijtimoiy ehtiyojini inobatga olib, to'lov-kontrakt pullari to'lab berilmoqda. Ta'lim kreditlari foizsiz ajratilmoqda va magistratura bosqichidagi xotin-qizlarga shartnoma pullari yuz foiz to'landi. O'z navbatida boquvchisini yo'qotgan, jismoniy imkoniyati cheklangan, yolg'iz oilalarga manzilli yordam qilish kabi ustuvor maqsadlarga erishishda yuqoridagi vositalar eng ishonchli institut vazifasini bajarmoqda. Bu ijtimoiy islohotlar pandemiya oqibatlarini to'la bartaraf etilmagan, dunyoda yangi chaqiriqlar, geosiyosiy nizolar kuchaygan, insoniyat oldidagi muammolar kun sayin dolzarblik kasb etayotgan pallada amalga oshirilmoqda[7].

Yangilantgan Konstitutsiyada O'zbekiston ijtimoiy davlat deb e'lon qilinmoqda. Davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid normalar qariyb uch baravarga ortmoqda.

XULOSA

"Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat" tamoyilini konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlanmoqda, bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bor shaxslar va keksa avlod vakillari huquqlarining ishonchli muhofazasini ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilanishi, fuqarolarning tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini davlat hisobidan olishga haqliligi kabi qo'shimchalar konstitutsiya loyihasiga kiritilmoqda.

Natijada inson va fuqarolarning Konstitutsion normalar orqali kafolatlangan ijtimoiy-iqtisodiy huquqi va erkinligi, o'z navbatida, mos ravishda davlatning tegishli majburiyati bilan

mustahkamlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, so'nggi yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida erishilgan natijalar va Taraqqiyot strategiyasi doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun mustahkam konstitutsion himoyani ta'minlash, huquq va erkinliklardan kelajak avlodlarimiz emin-erkin foydalanishi uchun ular Konstitutsiyada muhrlanmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.05.2022 yildagi PQ-258-son. <https://lex.uz/uz/docs/6035228>
4. Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqini 8-dekabr — Konstitutsiya bayrami bilan tabrikladi. <https://daryo.uz/2021/12/07>.
5. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – T.: O'zbekiston, 2020. – B. 349.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 24.
7. Akromova Z. Ijtimoiy davlat sari navbatdagi dadil qadam. <https://oldparliament.gov.uz/uz/events/opinion/40995/>
8. O'zbekiston – dunyoviy davlat. <https://www.iiu.uz/oz/news/2240>
9. Sharipov J. Demokratik ijtimoiy davlat barpo etish – bosh maqsad. <https://strategy.uz/index.php?news=1721>